ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TOG'AY MUROD ASARLARI ASOSIDA MUALLIFLIK KORPUSINI YARATISH ASOSLARI VA BOSQICHLARI

Xolmurodova Sumbula Normo'min qizi,
Termiz davlat universiteti
kompyuter lingvistikasi yo'nalishi magistranti

Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi, til korpusini yaratish, kompyuter texnologiyasi yordamida ulardan foydalanishning umumiy nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadi[1]. Korpus tilni tadqiq etish (so'zning o'zgarishi, istorizm, neologizm vujudga kelishi, ma'no torayishi, ma'no kengayishi; yangi frazeologizmlarning paydo bo'lishini kuzatish), til o'rganish, lug'at tuzishda eng zamonaviy, keng imkoniyatli dasturlashtirilgan tizimdir[2].

Tilshunosligimiz tarixida alohida muallif asari til xususiyatini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar talaygina. Runiy, uyg'ur yozuvi asosida yaratilgan yodgorliklarning til xususiyatiga bag'ishlangan bir qancha asarlar maydonga keldi. Bu tadqiqot ishlarida qadimgi turkiy til xususiyatlarining ayrim morfologik, sintaktik, fonetik xususiyatlari tahlil qilindi. Runiy yozuvdagi yodgorliklar tilini V.V.Radlov, S.E.Malov, A.M.Sherbak, G'.Abdurahmonov, A.Rustamovlar atroflicha tadqiq etishdi[3] . XI-XIV asr yozma yodgorliklari til xususiyati A.K.Borovkov ishlarida[4] , «Devonu lug'otit turk» asari tili A.Fitrat tadqiqotlarida, Yusuf xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari til xususiyati V.V.Radlov, S.E.Malov, V.V.Bartold, E.E.Bertelslar, Ahmad Yugnakiyning «Hibat-ul-haqoyiq» asari S.E.Malov, E.E.Bertels, Q.Mahmudovlar tomonidan alohida o'rganildi[5]. O'g'uz dialekti belgilari ustun bo'lgan «Qissai Yusuf» dostoni M.Brokkelman, o'g'uz, qarluq-uyg'ur dialektining qadimgi yodgorliklaridan hisoblangan «O'g'uznoma» afsonasi G.N.Potapin, A.M.Sherbak, XIV asr adabiy tili yodgorligi «Muhabbatnoma» asari til xususiyati ham A.M.Sherbak tomonidan tadqiq etilgan[6]. Mualliflik korpusi – bu biror yozuvchi yoki ijodkorning barcha mavjud matnlarini yagona tizimga jamlab, ular asosida turli lingvistik va stilistik tadqiqotlar olib borishga mo'ljallangan elektron matnlar to'plami hisoblanadi. Mualliflik korpusining boshqa korpuslardan farqi uning bazasida muayyan bir muallif asarlari jamlanadi, matnlar qayta ishlanadi, grammatik va semantik teglanadi, qidiruv tizimi orqali muallifga tegishli materiallardan zaruriy ma'lumotlar, lingvistik ifodalar aniqlanadi, matnlar asosida statistik ma'lumotlar taqdim etiladi, metama'lumotlar aniq beriladi. Shunday qilib mualliflik korpusi keng imkoniyatli qidiruv tizimiga ega bo'lib, muallif ijod qilgan barcha tur va janrdagi asarlar qamrab olinadigan, maxsus parametrlar asosida ham qidiruv imkoniyatiga ega, hajmi chegaralanmagan, muallif va uning ijodi bilan bog'liq manbalarni qulay va tezkor olish mumkin bo'lgan elektron ma'lumotlar bazasi hisoblanadi[7]. Bunday korpuslardan ko'zlangan maqsadlar,avvalo, mualliflning barcha asarlarini yaxlit bitta baza holatiga keltirish va shu vazifa zamirida muallif uslubini tahlil qilish; lingvistik birliklar (so'zlar, so'z birikmalari, grammatik shakllar) chastotasini aniqlash; leksik boylik va xilma-xillikni o'rganish; avtomatik tahlil qilish uchun model yaratish (masalan, muallif identifikatsiyasi, stilometriya) masalalariga amaliy yechim yaratishdir. Agar tadqiqotlar Milliy korpusda yaxlit bir tizim asosida o'z aksini topsa, istalgan leksemaning tarixiy taraqqiyot jarayonini turli muallif tili misolida yorqin tasavvur qilish imkoniyati paydo bo'ladi[8].

[1] Захаров В.П.Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. – С.48.

[2] Akramova Sh. Mualliflik korpusi keng qamrovli qidiruv tizimi / "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2024. – B. 178.

[3] Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X-XIII вв. из Восточного Туркестана. – М.–Л., 1961. – С.75.

[4] Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тефсира XI-XIII вв. – Москва: ИВЛ, 1963. – С.47.

[5] Турсунов У. ва б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 90.

[6] Турсунов У. ва б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 94.

[7] Akramova Sh."Mualliflik korpusi keng qamrovli qidiruv tizimi". "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2024.-B:5.

[8] Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. ф.ф.ф.д(PhD) диссертацияси. – 2018. – Б. 81.

Tog‘ay Murod – o‘zbek milliy adabiyotida o‘ziga xos xalqona til va uslubga ega bo‘lgan, o‘zbekona ruhda, chuqur falsafiy, realistik va milliylik bilan sug‘orilgan asarlar muallifi. Uning «*Ot kishnagan oqshom*», «*Yulduzlar mangu yonadi*», «*Otamdan qolgan dalalar*»,»*Oydinda yurgan odamlar*»,»*Momoyer qo‘shig‘i*» kabi asarlari o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Ijodkorning til uslubi, xalq og‘zaki ijodi bilan uyg‘unligi, obraz yaratishdagi o‘ziga xosligi, ifoda stilistikasini mualliflik korpusi orqali tizimli o‘rganishga imkoniyat yaratish mumkin. Adib asarlarining mualliflik korpusini yaratish ko‘plab mehnat talab qiladigan muhim bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Ilk qadam ma’lumotlar to‘plash (matnlarni jamlash) dan boshlanadi:

Birinchi bosqich – Tog‘ay Murodning barcha mavjud asarlari (roman, hikoya, qissa, she’r va h.k.) ni to‘plash. Bu bosqichda quyidagilar amalga oshiriladi:

Chop etilgan kitoblar va to‘plamlarni yig‘ish;

Elektron shaklda mavjud bo‘lgan matnlarni topish (PDF, DOC, EPUB);

Qo‘lyozma yoki nashr holatidagi matnlarni maxsus texnologiyasi orqali raqamlashtirish.

Keyingi bosqichlarda matn tahriri bilan shug‘ullaniladi.Topilgan matnlar ko‘pincha turli shakllarda bo‘lishi mumkin, masalan, skaner qilingan, noto‘g‘ri belgilar bilan yozilgan, eski imloviy shakllar bilan berilgan. Shu sababli ularga ishlov berilib standartlashtiriladi:

texnik xatolardan tozalanadi;

yagona imlo va grammatika tizimiga keltiriladi;

ortiqcha belgilar, reklama, sahifa raqamlari olib tashlanadi;

har bir matnga nomi, yozilgan yili, janri kabi meta-ma’lumotlar qo‘shiladi.

Uchinchi bosqich korpusni belgilash (annotatsiya qilish). Korpusni belgilash matnlarga qo‘shimcha lingvistik axborot ya‘ni ma’lumot qo‘shish jarayonidir. Quyidagicha annotatsiya turlarini korpusda ifodalash mumkin:

Leksik annotatsiya (so‘z turkumlarini aniqlash, masalan, ot, fe’l, sifat va h.k.);

Morfologik annotatsiya (so‘zning lug‘aviy va grammatik shakllari);

Sintaktik annotatsiya (gap bo‘laklari va ularning o‘zaro munosabatlari);

Stilistik annotatsiya (badiiy ifoda vositalarini ajratish: metafora, epitet, dialog, xalq maqoli va boshqalar).

Bunday belgilashlar yaratilgan korpusdan foydalangan holda oson va tezkor usulda turli tilshunoslik yoki stilistik tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Korpusni saqlash va qidiruv tizimini yaratish keyingi bosqich sanaladi.Mualliflik korpusi foydalanuvchilarga qulay bo‘lishi uchun maxsus formatda saqlanadi,masalan, XML, JSON, TEI. Shuningdek, korpusni ko‘rish, izlash va tahlil qilish uchun interaktiv interfeys yaratiladi. Korpusning bosh menyu oynasida bu to‘liq aks etgan bo‘lishi lozim. Bu jarayon korpusning texnik tomonida ishlanadi.

Tog‘ay Murod asarlari korpusi ishlab chiqilishi adibning til uslubini stilometrik tahlil qilish; muallifning leksik boyligini statistik jihatdan o‘rganish; u qo‘llaydigan o‘zgacha xalqona iboralar va og‘zaki nutq unsurlarini aniqlash; turli yillarda yozilgan asarlar tilidagi o‘zgarishlarni tahlilga tortish; mualliflik identifikatsiyasi yoki plagiat aniqlash tizimlari uchun ma’lumotlar bazasini yaratishga imkoniyat beradi.

Tog‘ay Murod ijodini raqamli korpus shaklida bitta tizimga jamlash va tahlil qilish, bir tomondan, zamonaviy tilshunoslikka xizmat qilsa, boshqa tomondan, o‘zbek milliy adabiy merosini yangi bosqichda o‘rganishga ulkan zamin yaratadi. Mualliflik korpusini yaratish, nafaqat o‘zbek tilshunoslik sohasiga, balki lingvokulturologiya, adabiyotshunoslik, sun’iy intellektga asoslangan tahlil sohalari rivoji uchun ham katta hissa qo‘shadi.

Rezyume. Raqamli lingvistika va korpus lingvistikasi fanlari taraqqiy etishi bilan badiiy matnlarni chuqur lingvistik tahlil qilish, muallif uslubini aniqlash va asarlarining leksik-stilistik xususiyatlarini kompyuter yordamida tahlil qilish orqali zamonaviy tadqiqotlarga samarali va tezkor yordam ulashish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan o‘zbek adabiyotida salmoqli va zalvarli ijod qilgan yozuvchilardan biri – Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish dolzarb va foydali ilmiy vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolada Tog‘ay Murod ijodini tizimlashtiri va korpuslashtirish, ya’ni mualliflik korpusini yaratish bosqichlari yoritiladi.

Resume. With the progress of the disciplines of digital linguistics and Corpus Linguistics, an opportunity arises to share effective and quick assistance to modern research through in-depth linguistic analysis of artistic texts, identification of the author’s style and computer-aided analysis of the lexical-stylistic characteristics of his works. In this regard, the creation of an author’s corpus based on the works of one of the most significant and ingenious writers in Uzbek literature – Togay Murad is an urgent and useful scientific task. This article will highlight the stages of systematization and corporatization of the work of the uncle Murad, that is, the creation of an author’s Corpus.

Резюме. По мере развития дисциплин цифровой лингвистики и корпусной лингвистики появляется возможность эффективно и оперативно оказывать помощь современным исследованиям посредством углубленного лингвистического анализа художественных текстов, определения авторского стиля и компьютерного анализа лексико-стилистических особенностей их произведений. В этом отношении актуальной и полезной научной задачей является создание авторского корпуса на основе произведений Тогая Мурада – одного из самых значительных и плодотворных писателей узбекской литературы. В этой статье будут рассмотрены этапы систематизации и корпоратизации творчества Тогая Мурада, то есть создания авторского корпуса.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QORAQALPOG'ISTON O'ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI TADQIQI MASALASI

Ibragimov Yuldash Matkarimovich
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogia instituti O'zbek tili kafedrasi filologiya fanlari doktori, professor

Dialekt va shevalarni tadqiq etish xalqning tarixi, etnogenezi, etnik yashash yo'li, mazkur hududning madaniy, iqtisodiy turmush tarzi bilan uzviy bog'liq ravishda qaraladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zbek shevalari leksikasini tadqiq etish borasida etnik guruhlarning tarqalish holatlari, ularning qanday tarmoqlarga bo'linish masalalari qisqacha bayon etiladi.

Dialektlarni tadqiq etish ishi juda muhim, chunki dialektlar ilmiy jihatdan adabiy tilning moddiy bazasiga manba sifatida baholansa, ular hozirgi adabiy til leksikasini boyituvchi manbalardan biri sifatida tan olinadi.

Til jamiyatning rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Ushbu jarayon davomida u sayqal topadi, ma'no jihatdan kengayadi. «Tilning rivojlanish holatini jamiyatning rivojlanishi belgilaydi, jamiyatning tarixini, o'sha tilda so'zlashadigan xalqning tarixini bilmasdan, tilning rivojlanish tarixini tushinish mumkin emas[1]. Demak, har qanday tilni, dialekt va shevalarni, uning taraqqiyot yo'lini o'rganish uchun, o'sha tilning egasi bo'lgan xalqning o'tmishdagi hayot yo'liga e'tibor qaratish lozim.

Dialektlarni o'rganishning ahamiyati haqida mashhur turkolog P.M.Melioranskiy ham juda ahamiyatli fikr bildirib, uni o'rganish qadimgi estaliklarni bilishga, til tarixini tadqiq etishga juda foydali ekaniga alohida e'tibor qaratgan edi[2].

Xalqning o'tmishda kechirgan hayot yo'li bir qancha tarixiy sharoitlarni yechib berishga yordamlashadi, bir xalq tilida bir qancha dialektning paydo bo'lishi haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Masalan, o'zbek tilining o'g'uz va qipchoq lahjalaridan misol keltiraylik. Qipchoq lahjasi Amudaryoning quyi qismida, uning ikki qirg'og'iga qator-qatora joylashib, makon etgan o'zbek xalqining o'tmish tarixi bilan sug'orilib, o'zining leksik tarkibi bilan asosiy leksik fondi ko'p boy so'zlarni to'plasa, o'g'uz dialekti, asosan, uning leksikasi ham shunday yo'lni o'tdi. Xalqning og'zaki so'zlashish tilining boyligini yig'ish, tadqiq etish, boshqa dialekt va shevalarga solishtirib, o'zaro solmog'ini belgilash mas'uliyatli ish. Har bir adabiy tilning dialektal bazasini tadqiq etish davrida deydi: N.A.Baskakov, - hozirgi aniq tarixiy sharoitlarni, uning barcha taraqqiyot jarayonini e'tiborga olish lozim[3].

[1] Чикобаева А.С. Введение в языкознание, ч.1. М., 1952, с.78.
[2] Мелиоранский П.М. Араб-филология турецком языке. СПб,1909, стр. 1-11.
[3] Баскаков Н.А. Выступление по докладам во время регионального совещания по диалектологии тюркских языков. Баку, 1956, стр.167.